

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA TATABBU’ TARIXIDAN

Zarnigor Shamsiyeva,

JDPI II kurs magistranti

Ilmiy rahbar: dotsent Surayyo Eshonqulova

Tatabbu’ an’ana, yangilik va mahorat bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli mumtoz she’riyat rivojida muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotshunoslikda, shuningdek, lug‘at va qomuslarda tatabbu’ istilohi haqida ba’zi fikrlar bildirilgan. A. Shomuhamedov tomonidan tatabbu’ izdoshlik [8;18], M.G‘iyosiddin esa uni ergashish [7;180], R.Hodizoda, U. Karimov, S. Sa’diyev payravlik [2;41-45] deb baholasa, R. Musulmonqulov uni taqlidan she’r bitish [3;590] tarzida sharhlaydi. Bu sharhlarda ma’no jihatdan mushtaraklik ham, ayni bir paytda, farq ham ko‘zga tashlanadi. Mushtaraklik boshqa bir asardagi an’analarni davom ettirishga ishora bo‘lsa, farq esa an’ana munosabatida namoyon bo‘lgan. Chunonchi, ayrim fikrlarda tatabbu’ an’anani ijodiy rivojlantirish deyilsa, ba’zilarida u taqlidga bog‘lab qo‘yiladi. Bu esa tatabbu’ xususiyatini to‘la ifodalay olmaydi.

Tatabbu’ aslida arabcha so‘z bo‘lib, *kimningdir izidan borish, izlash, taqlid etish, o‘rganish, mos kelish, qayta yaratish* kabi ma’nolarni bildiradi. Ko‘rinadiki, tatabbu’ istilohiy xususiyatlarga ega. Shu sababli uning ma’no doirasi keng. Tatabbu’ga adabiy istiloh sifatida yondashib, uni izdoshlik, ijodiy ergashish va payravlik tarzda sharhlash xato emas. Ammo tatabbu’ni taqlid sifatida baholab bo‘lmaydi.

Xususan, R. Musulmonqulovning “*tatabbu’ biror shoir she’ridagi mavzu, vazn va qofiyaga taqlid qilib she’r bitish*” yoki “*tatabbu’ taqlidiy asar*”[4;270] degan fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki tatabbu’ ijodiy bellashuv bo‘lib, yetuk ijodkor qalamida u tatabbu’lanmish darajasida va hatto badiiy jihatdan undan yuqori darajada bo‘lishi mumkin. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, tatabbu’ ijodiy bellashuvdir. Zero, tatabbuna’vislik *an’ana, yangilik* va *mahorat* uchligi bilan

bog‘liq faoliyatdir. Navoiyning ko‘pgina tatabbu‘lari bunga yorqin misoli bo‘la oladi.

Bugun hech kimga sir emaski, *“o‘zbek g‘azalchiligida ilk tatabbu‘lar XII asrda yuzaga keldi. She‘riyatimizda g‘azal janrining paydo bo‘lishi ham shu davrga to‘g‘ri keladi”* [1;24]. Olimning fikricha, *“g‘azalning o‘zbek adabiyotidagi ilk namunalari XII asrning mashhur shoirlar Xoja Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg‘oniy ijodida ko‘zga tashlanadi. Xoja Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” kitobida g‘azal janrining xususiyatlarini o‘zida mujassamlagan she‘rlar anchagina. Ahmad Yassaviy she‘rlarida aks etgan g‘azalga xos xususiyatlar Sulaymon Boqirg‘oniy she‘rlarida ham mavjud. Bu esa bejiz emas. Chunki Sulaymon Boqirg‘oniy Ahmad Yassaviyning tasavvuf bo‘yicha muridi, badiiy ijodda esa shogirdi va izdoshi edi. Shu sababli u o‘z she‘rlarida Ahmad Yassaviy an‘analarini izchil rivojlantirdi. Ustozi she‘rlaridagi mazmun va shakl unsurlarini ijodiy tarzda qo‘llab, go‘zal tatabbu‘lar bitdi”*, – degan xulosaga keladi [1;25].

Navoiy esa ***tazmin tatabbu‘*** yaratish doirasini kengaytirgan bo‘lsa, u bir shoir uslubidan foydalanib boshqa shoir g‘azaliga tatabbu‘ bog‘lash an‘anasini boshlab bergan. Qisqasi, XV asr ikkinchi yari o‘zbek she‘riyatida, aniqroq aytganda, Husayniy va, xususan, Navoiy ijodida tatabbuna‘vislik g‘oyat rivojlangan.

Alisher Navoiyning “Devoni Foni” asaridagi g‘azallarning aksariyati tatabbu‘navislik asosida vujudga kelgan. Ular taqlidiy she‘rlar emas. Aksincha, devondagi g‘azallar Navoiyning buyuk g‘azalnavis salafлари va katta zamondoshlari an‘analarini ijodiy ravishda davom ettirib yozilgan she‘rlar bo‘lib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) ularning aksariyati Navoiy salafлари g‘azallari darajasida va hatto ko‘plari badiiy-g‘oyaviy jihatdan ustozlarining she‘rlaridan ustunlik qilgan.
- 2) Navoiy ijodidagi tatabbuna‘vislik jarayoni ijodkorlik, yangilik, ilgari shu darajada bo‘lmagan yangi narsani yaratishni yuzaga keltirgan. Navoiyning “Devoni Foni”dagi g‘azallari shunday yangi va yetuk she‘rlar sirasiga kiradi.

3) Tatabbu' ijodiy faoliyat bo'lganligi sababli unga ijodkorona munosabatda bo'lish adabiy yangiliklarga yo'l ochadi. Chunonchi, "Devoni Foni"da bir guruh tatabbu'lar mavjudligi, ularni Navoiy biror shoir she'rlariga bog'lab yaratar ekan, boshqa shoir uslubidan foydalanadi.

Tavr yo'li bilan bitilgan she'rlarda uslubiy yaqinlik, o'xshashlik ko'zga tutilar ekan, bu narsa tatabbu'ni esga tushiradi. Zero, tatabbu' asarlar muayyan ijodkor asarlariga mazmun va shaklning ayrim unsurlarining o'xshashligi asosida vujudga keladi. Tavr yo'lida yozilgan g'azallar asosga uslubiy jihatdan yaqinligi jihatdan tatabbu'ga mushtarak bo'ladi. Chunki tavrda uslubiy o'xshashlik ko'zga tashlanadi. Tatabbu'dagi asos o'xshashligi ham mazmunan, ham shaklan bo'ladi. Aniqroq aytganda, mashhur asarga bitilgan tatabbu' asosga *mavzu, g'oya, obraz, tasviriy vositalar, qofiya, radif, vazn, uslub* jihatidan o'xshash bo'ladi. Zero, tatabbu' bituvchining o'zi shunga intiladi. Ammo bunda, albatta, iqtidor va mahorat alohida o'rin tutadi. Agar bu ikki fazilat bo'lmasa, xalaf shoir asari oddiy taqliddan nariga o'tmaydi. Ammo shunisi ham borki, bu ikki fazilat mukammal bo'lsa, xalaf shoir tatabbu'si mashhur salaf shoir asari bilan bellashadigan yetuk darajaga ko'tariladi.

Demak, tatabbu'ning yaratilishi uchun turtki bo'luvchi *asos- asar* bo'lishi shart. Shu bilan birga, tatabbu'dagi asos asarga *o'xshashlik, payravlik, izdoshlik, yangilik, mustaqillik* uning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Shunisi diqqatga sazovorki, asos asarga izdoshlik nuqtayi nazaridan ijodkorona yondashilsa, tatabbu'ning yangi qirralari ochilishi mumkin. Bunga tazmin tatabbu' va mav'iza tatabbu' misol bo'la oladi.

Tatabbu'navislikda tatabbu'ning quyidagi turlari mavjud:

1. **Tazmin tatabbu'lar;**
2. **Mav'iza tatabbu'lar;**
3. **Masnu' tatabbu'lar;**
4. **Matbu' tatabbu'lar.**

Tazmin xalaf shoir she'rida mashhur salaf she'ridagi biror shohbayt yoki biror-bir misraning keltirilishidir. Agar xalaf shoir she'ri tatabbu' bo'lsa, tazmin

sifatida keltirilgan misra yoki baytdagi fikrlar tatabbu'ga ijodiy ravishda davom etiriladi. Bu narsani Navoiyning "Devoni Foni" dagi Hofiz g'azallariga bog'lagan tazmin tatabbu'larida yaqqol ko'rish mumkin. Shuningdek, tazmin tatabbu'ga Furqatning "Kelinchak" she'ri ham misol bo'la oladi. Unda Furqat ozarbayjon shoiri Fuzuliyning *"Suramadin go'zlar qaro, allar xinodin lolarang"* misralari bilan boshlanuvchi g'azalidagi shu misraning o'zini she'rga tazmin qilib olib, undagi fikrlarni ijodiy tarzda rivojlantirgan. Chunonchi, Fuzuliy she'rida milliy qiyofali ozar go'zali, yanada aniqroq aytganda, milliy libos, bezak va pardozdagi Farg'ona vodiysi kelinchagining go'zal qiyofasi tasvirlanadi.

Mav'iza tatabbu'lar pand-nasihat mazmunidagi she'rlardir. Mav'iza so'zi ham pand-nasihat, tavsiya, dono fikr ma'nolarini ifodalaydi. Mav'iza tatabbu'da salaf shoir she'ridagi didaktik fikrlar rivojlantiriladi va she'r boshdan – oxir tarbiyaviy mazmunga ega bo'ladi. Bu narsani Navoiyning "Devoni Foni" da Sa'diy, Hofiz va Jomiy g'azallariga bog'langan mav'iza tatabbu'larida yaqqol ko'rish mumkin. Shuningdek, bu hol shoir Kulfatning Navoiy g'azallariga bog'langan mav'iza tatabbu'larida ham ko'zga tashlanadi.

Tatabbu' esa mustaqil asar bo'lib, u boshqa badiiy-g'oyaviy yetuk asardagi an'analarni ijodiy rivojlantirishdir. Unda adabiy-ijodiy musobaqa namoyon bo'ladi. Adabiyotshunoslar G'. Salomov va N. Komilov to'g'ri qayd etganlaridek, *"Tatabbu' yozishga kirishgan shoir ustozlari darajasida qobiliyati borligini, o'sha shaklda, o'sha motivda she'r aytishga o'zining qodir ekanligini namoyish etadi. Tarjimon esa shoirning asarini o'z tilida qayta ijod etishga chog'lanadi"* [6;183].

Tatabbu' va tarjimaning farqini mumtoz adabiyotdagi turli janrlarda yozilgan ularga doir misollar asosida ham yaqqol ko'rish mumkin. Chunonchi, Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" va Qutbning "Xusrav va Shirin" dostonlarini olib ko'raylik. "Lison ut-tayr" – tatabbu' doston. U mashhur fors-tojik shoiri Fariduddin Attor (1151-1221) ning "Mantiq ut-tayr" dostoniga javobidir. Garchi Navoiyning o'zi dostonida *"Kim bu daftarga berib tavfiq haq, Tarjima rasmi bila yozsam varaq"* degan bo'lsa-da [5;73], aslida "Lison ut-tayr" tarjima emas. Bu fikrni Navoiy o'ta xokisorlik bilan aytgan. Voqean, asarga nazar tashlansa, uning "Mantiq ut-tayr"ga

javobiya ekanligi ko‘rinib turadi. To‘g‘ri, avvalo aytish lozimki, har ikkala asarda mavzu, g‘oya va obrazlar talqinida mushtaraklik bor. Ammo, shu bilan birga, ularni bir-biridan jiddiy farq ettiruvchi jihatlari ham mavjud.

Xullas, ikkala asar bir-biriga to‘la qiyoslansa, “Lison un-tayr”ning tarjima emasligi, balki tatabbu’ ekanligi ayon bo‘ladi. Asarning tatabbu’ ekanligini Navoiyning o‘zi ham qaqnusga bag‘ishlangan *“O‘zining shayx ruhi madadidan anga tatabbu’ qilg‘ong‘a qaqnus tamsili”* sarlavhali 174-bobda maxsus ta’kidlangan edi. Qayd etish lozimki, Navoiy “Lison ut-tayr”ni tatabbu’ asar sifatida yaratib, unda Attorning “Mantiq ut-tayr” dostonidagi an’analarni ijodiy ravishda davom ettiradi. Avvalo, Navoiy asarning mavzu doirasini kengaytiradi. Unga o‘zi mansub bo‘lgan naqshbandiylikning bir qancha masalalarini olib kirdi. Ikkinchidan, asardagi bosh g‘oya vahdat ul-vujud, ya’ni Alloh va olamning birligini naqshbandiylikning nazariy asoslari yanada chuqurlashtirdi. Nazarimizda, Alloh kabi olam va odamning birliginigina emas, shuningdek, Alloh kabi olam va odamning abadiylgini ham badiiy jihatdan isbotlab berdi. Uchinchidan, “Lison ut-tayr”dagi 12 tagina hikoyat “Mantiq ut-tayr”dan olingan. Qolgan 50 dan ortiq hikoyat Navoiyning o‘z qalamiga mansubdir. Bularning hammasi “Lison ut-tayr”ning tarjima emasligini, balki mustaqil asar ekanligini ko‘rsatadi.

Qutbning “Xusrav va Shirin” dostoni esa tatabbu’ emas, balki tarjimadir, Chunki u ulug‘ ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy (1141-1209) ning shu nomdagi dostonining o‘zbek tiliga ag‘darilgan nusxasidir. To‘g‘ri, Qutb “Xusrav va Shirin”ga ko‘pgina o‘zgartirishlar kiritgan. Dostonning ba’zi boblarini qisqartirib, yangi boblar qo‘shgan. Dostondagi shahar manzaralari va shaharliklar hayoti tasviri yoniga ko‘chmanchi o‘zbeklar turmush tarzini ifodalovchi chorvachilik, ovchilik lavhalarini qo‘shib tasvirlagan. Nizomiy dostonida Mehinbonu Xusravni saroyda kutib olsa, Qutb tarjimasida dalada kutib oladi, may o‘rnida qimiz, borbat o‘rnida qo‘buz cholg‘u asbobi qo‘llanadi.

Bu o‘zgartirishlarga qaramay Nizomiyning “Xusrav va Shirin”dostoni o‘zbek tilida tarjima sifatida yaratildi. Chunki Qutb Nizomiy dostonidan ilhomlangan va ta’sirlangan bo‘lsa-da, ammo unga javobiya tarzidagi yangi asar yaratgan emas.

Yoki Nizomiy an'analarini ijodiy ravishda davom ettirib, o'zbek tilida ham shu ruhdagi original xususiyatga ega bo'lgan asarni vujudga keltirmadi. Garchi Nizomiy asariga ancha erkin munosabatda bo'lgan bo'lsa-da, uning mazmuniga putur yetkazmay o'zbek tiliga ag'dardi. Demak, tatabbu'da salaf an'analari rivojlantirilsa, tarjimada salaf ijodi mahsuli bilan tanishtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, tatabbu' salaf ijodkor asarining uning mazmunan va shaklan yangilangan, xususan, mavzu doirasi kengaytirilgan va chuqurlashtirilgan, obraz va tasviriy vositalari yanada boyitilgan, originallashtirilgan namunasidir. Demak, tatabbu' sifatida yaratilgan bir asar salaf va xalaf ijodi bo'yicha umumiy xulosalar chiqarishga ham imkon berishi mumkin. Shu bilan birga, salaf shoir ijodidagi o'nlab yoki yuzlab she'rlarga tatabbu' yozish va shu yo'l bilan uning ijodining badiiy g'oyaviy yetukligi hamda uslubi haqida yaxlit xulosalar chiqarish va o'z badiiy iqtidori haqida ham to'la tasavvur berish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fayzulloyev B. O'zbek she'riyatida tatabbu tarixi va mahorat masalalari (XVII-XIX asrlar va XX asr boshlari g'azalchiligi asosida). –T.: Tamaddun, 2021.
2. Hodizoda R., Karimov U., Sa'diyev S. Adabiyoti to'chik. – Dushanbe: Maorif, 1988. –S. 41 – 45.
3. Musulmonqulov R. Tatabbu' // O'zbek sovet ensiklopediyasi. – Toshkent: 1987. – Tom 10. 590 b.
4. Мусулмонқулов Р. Татаббуъ // Энциклопедияи советии тоҷик. – Ҷ.7. – Душанбе, 1987.
5. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 12-tom. –T.: Fan, 1987.
6. Salomov G'., Komilov N. Do'stlik ko'priklari. –T.: Adabiyot va san'at, 1979.
7. Ғиёсиддин М. Ғиёс ул-луғот, дар 3 ҷилд. – Ҷ. 1. – Душанбе: Адиб, 1987.
8. Shomuhamedov A. Hamkorlik samaralari. –T.: Fan, 1982.